
Yangi bino qurishdan avval tuproqning unumdar qatlami sidirib olinishi kerak

“Tuproqni muhofaza qilish va uning unumdarligini oshirish to'g'risida”gi Qonun (O'RQ-903-son, 02.02.2024-y.) Prezident tomonidan imzolandi.

Qonun bilan **tuproqni muhofaza qilish** va uning **unumdarligini oshirish** sohasidagi asosiy prinsiplar, sohani davlat tomonidan tartibga solish, tuproq unumdarligini oshirish asoslari va tartibi belgilandi.

Qishloq xo'jaligi vazirligi tuproqni muhofaza qilish va uning unumdarligini oshirish sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshiradi.

Yer egalari Tuproqshunoslik va agrokimyoiy tadqiqotlar institutidan o'ziga tegishli yer uchastkasidagi tuproqning sifatini baholash to'g'risida axborot olish huquqiga ega.

Yer egalari shaharsozlik faoliyatini, geologik qidiruvni va foydali qazilmalarni qazib olishni, shuningdek qishloq xo'jaligiga oid bo'limgan boshqa faoliyatni amalga oshirishda tuproqning mavjud unumdar qatlamini **sidirib olishi va saqlashi shart**.

Sidirib olingan tuproqning unumdar qatlamini qurilish tashkilotlari hokimliklar tomonidan belgilangan joylarga saqlash uchun olib chiqadi.

Tuproqning unumdar qatlami sidirib olinmaganligi va saqlanmaganligi fakti aniqlanganda, yetkazilgan zararning o'rni **mahalliy byudjetga qoplanadi**. Mazkur pul mablag'laridan qishloq xo'jaligida foydalanimayotgan sug'oriladigan yerlarni foydalanishga kiritish va yerlarning **meliorativ holatini** yaxshilash uchun foydalaniladi.

Tuproqni o'rganish **Qishloq xo'jaligi, Suv xo'jaligi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirliklarining** vakolatli tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi.

Shuxrat Mirzakirov

Jinoyat ishlari bo'yicha O'zbekiston tuman sudining raisi

2024-02-27 08:50:33